

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA O'Z-O'ZINI BAHOLASH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH
YO'LLARI**

Meyliyeva N. G.

Nav.D. P. I Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu mavzuning dolzarbligi bo'lajak pedagoglar o'zini idrok etishi, o'zini o'zi qadrlashi, o'zini tavsiflashi, odamlarning ko'z o'ngida ma'lum bir tarzda namoyon bo'lish istagi va uning haqiqiy hayotiga nisbatan sezgirligi o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: pedagog, modernizatsiya, shaxs, kompetentsiya, kompetentlik, baho, reflektiv, prognostik, korreksion, retrospektiv, terminal.

Zamonaviy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bo'lajak pedagoglar shaxsiga qiziqishning ortishi muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri – bo'lajak pedagoglar o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash - pedagoglarning ta'lim jarayonida faol pozitsiyasini shakllantirish muammosini ayniqsa ahamiyatli qiladi. Ikkinchisi o'qituvchining o'zi va qobiliyatlari haqidagi tasavvurini shakllantirishni, uning shaxsiyati va faoliyatining xususiyatlarini har tomonlama va ob'ektiv baholash, o'qituvchi rolini o'ynash, boshqalar bilan munosabatlarni to'g'ri qurish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni ma'lum darajadagi o'z-o'zini hurmat qilishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu ijtimoiy jarayonlarda, kasbiy muloqot saviyasini oshirishga sharoitlar yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni,¹ 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi,² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 6 qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.³

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари тўплами миллий базаси. 2017

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича

Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари тўплами миллий базаси <https://lex.uz/>.

Hozirgi davrda pedagogikada inson dunyoqarashi masalalari tubdan ko'rib chiqilmoqda, insonning ijtimoiy hayotdagi holati o'zgarmiqda va o'sib kelayotgan avlod ta'lim-tarbiyasi qayta baholanmoqda, bu esa mazkur jarayonlar sub'ektlarining o'zaro munosabati ham o'zgarishiga olib kelmoqda. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatining insonparvarlik aspektlari bugungi kunda I.Kantning har bir insonga o'z maqsadlariga erishish va o'zining boshqalar uchun bir vositaga aylanishiga yo'l qo'ymaslikni ifodalovchi qat'iy majburlamaslik formulasiga asoslanadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li-oily ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - "bilim - ko'nikma - malaka"ni oltita birlik (sektet) - "bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya- kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab "kompetensiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) - sub'yektning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub'yektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan.

Kompetensiya - lotincha «Competentia» so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi.

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati ⁴

Kompetentlikning ham bir necha turlari bo'lib, shulardan biri o'z-o'zini baholash kompetentligi hisoblanadi. Dastlab shaxsning o'z-o'zini baholashga to'xtalish zarur.

Shaxsning o'zini-o'zi baholashi shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichidir. Odamning o'ziga-o'zi qanday munosabatda bo'lishi unga atrofdagilarning qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. O'zini-o'zi baholash shaxsning hal qiluvchi xususiyati, uning o'zagidir. O'zini-o'zi baholash jamoadagi faoliyati, mavqeini, uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatini baholashni o'z ichiga oladi. Shaxsning faolligi, uning jamoa faoliyatida ishtiroki uning o'zini-o'zi tarbiyalashga intilishi, o'zini-o'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz hech nimaga yaramaydigan sub'ekt deb o'ylaydigan odam taqdirini yaxshilash uchun istar-istamas kuch-g'ayrat sarflaydi. Aksincha, o'zlarini yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq ishlashga moyildirlar. Ular yaxshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar.

O'zini-o'zi baholash bu boshqa odamlarni baholashiga qaraganda ancha murakkab xodisadir. O'zini-o'zi baholash baholashga nisbatan ancha kechroq shakllanadi. Barcha yosh guruhlarida odamlar

⁴ Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. -128 b.

o'zlariga nisbatan boshqalarni xolisroq baholaydilar. O'ziga boshqalar nuqtai nazaridan fikr bildirish qobiliyati muloqotda va jamoa faoliyatida rivojlanadi.

O'zini-o'zi baholash oshirilgan, pasaytirilgan va mos yoki xolisona bo'lishi mumkin. Bu ta'riflar shaxsning real imkoniyatlariga nisbatan oshirilgan.

Odamlar o'zlari haqida ko'pincha noto'g'ri tasavvurda bo'ladilar, bu tasavvurni qurishdan halos bo'lish uchun ular o'z tajribalarini va mavjud voqelikni buzib ko'rsatadilar. Bu xuddi o'sha ziddiyat bo'lib, u kayfiyatni ham, xulq-atvorni ham, odam rivojlanishining o'zini ham belgilab beradi. Bunda sub'ekt ham har doim o'ziga-o'zi yuqori baho beravermaydi. O'zlarining hech nimaga yaramasliklarini tan olgan va shu asosda muvaffaqiyatli bo'lishi bilan bog'liq o'z tajribalarini inkor etuvchi odamlar bor.⁵

O'z-o'zini baholash — bu shaxs tomonidan o'zini sub'ektiv baholash. O'z harakatlari, fazilatlarini, his- [tuyg'ulari](#) baholay olish xususiyati.

O'z-o'zini baholashning xususiyatlari:

Tartibga solish — shaxs tomonidan vazifalarni qabul qilish va shaxsiy qarorlarni tanlash

Himoyalash — shaxsning nisbiy barqarorligini va uning mustaqilligini ta'minlash.

Rivojlanish- shaxsni rivojlanish va takomillashtirishga undaydi.

Reflektiv (yoki signal) — insonning o'ziga va uning harakatlariga bo'lgan haqiqiy munosabatini aks ettiradi, shuningdek, sizning harakatlaringizning adekvatligini baholashga imkon beradi.

Hissiy — insonga o'z shaxsiyati, uning fazilatlarini va xususiyatlaridan qoniqish his qilish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik — insonning jamiyat va uning atrofidagi dunyoga moslashishiga yordam beradi.

Prognostik — faoliyatning boshida shaxsning faoliyatini tartibga soladi.

Korreksion — faoliyatni amalga oshirish jarayonida nazoratni ta'minlaydi.

Retrospektiv — insonga uni amalga oshirishning yakuniy bosqichida uning xatti-harakati va faoliyatini baholash imkoniyatini beradi.

Rag'batlantirish - ma'qullash va ijobiy o'zini o'zi baholash reaksiyalarini olish uchun harakat qilishga undaydi (o'zini qoniqtirish, o'zini o'zi qadrlash va g'ururni rivojlantirish).

Terminal — agar uning xatti-harakatlari o'z-o'zini tanqid qilish va o'zidan norozilik paydo bo'lishiga hissa qo'shsa, odamni to'xtatadi (faoliyatini to'xtatadi).

Bo'lajak pedagogning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z – o'zini baholash qiyin, lekin o'qituvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'qituvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahlil va tarbiya olish uchun sabablar bo'lishiga intilishi lozim. O'qituvchilar o'z – o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida ishlab boradi. O'z ustida ishlash asosan ta'lim olishdan boshlanadi. Bunda ularning nazariy tafakkurini shakllantirish to'garak va fakultativ mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o'qituvchining badiiy asarlarni o'qishi va tushunishi orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga va munozaraga o'rganib boradi. Unda asta - sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Bu esa unda mustaqil o'ylashi, to'g'ri

⁵ Мещерова Л.Ф. Педагогические условия формирования готовности к профессиональному самоопределению будущего учителя в высшей школе: Дис. ... канд. пед. наук. Томск, 2003.

yo'l va xulosa chiqarishi, qat'iy qaror qila olish fazilatlarini o'stiradi. O'qituvchilar o'z ustilarida ishlash jarayonida ularning qobiliyati, pedagogik mahorati rivojlanadi.⁶

Xulosa

Yuqorida keltirgan fikrlarimizning barchasi bo'lajak pedagoglarni o'z-o'zini baholash faoliyati bo'yicha yozilgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z ustida ishlash faqatgina o'qituvchi faoliyatida emas, balki butun bir shaxs faoliyatida namoyon bo'lishi kerak. Shaxs o'z-o'zini hurmat qilmasa, o'z ustida ishlamasa, u bir joyda qotib turgan toshga o'xshab qoladi. Toshni esa kimdir vaqti kelib, yo tepib, yo uloqtirib tashlaydi. Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatlari ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi fazilatlarini kamol toptirsa, uning obro'si, mavqei ham shu darajada yuksaladi, doimo el nazarida bo'ladi. Uni hech kim uloqtirib yo chetga chiqarib qo'ya olmaydi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари тўплами миллий базаси. 2017
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари тўплами миллий базаси <https://lex.uz/>.
4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. -128 b.
5. Мещерова Л.Ф. Педагогические условия формирования готовности к профессиональному самоопределению будущего учителя в высшей школе: Дис. ... канд. пед. наук. Томск, 2003.
6. Abdullayeva, N. A. (2022). ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH KOMPETENTLIGI-BO „LAJAK O „QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.

⁶ Abdullayeva, N. A. (2022). ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH KOMPETENTLIGI-BO „LAJAK O „QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.